

Surxondaryoda hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi ish boshladi



Bugun, 5 may kuni Termiz shahridagi San'at saroyi binosida qishloq xo'jaligi va meva-sabzavot mahsulotlari hamda dorivor o'simliklarni qayta ishlash, transport, logistika sohalari uchun mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi o'z ishini boshladi.

Yarmarkaning ochilish marosimida Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, vazirliklar, idoralar, tarmoq birlashmalari, xolding kompaniyalari, shuningdek, ishbilarmon doiralari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Yarmarkada 300 dan ortiq sanoat va hududiy korxonalar qatnashmoqda hamda taqdim etilgan mahsulotlar assortimenti 500 dan ortiq tovar pozitsiyasini tashkil qiladi.

Viloyat hokimi tadbirni ochir ekan, respublikamizda ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali sanoat salohiyatini rivojlantirish va ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilayotganini va bu borada samarali choralar ko'rayotganini ta'kidladi. Mazkur yarmarka ham ana shunday chora-tadbirlardan biri bo'lib, mahalliy tadbirdorlar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni ko'paytirish, mahalliy xomashyoni qayta ishlashni chuqurlashtirish, yangi turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va ish o'rnlari yaratishga qaratilgani qayd etildi.

Yarmarkada asosiy e'tibor mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, sanoatda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini o'rganib chiqish, kelgusida sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'yish va ish ko'lmini kengaytirish uchun buyurtmalar portfelini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Tadbirda sanoat kooperatsiyasi asosida o'zlashtirishga taklif etilgan import o'rnini bosuvchi mahsulotlar, ularga bo'lgan yillik ehtiyoj, texnik talab va ko'rsatkichlari bo'yicha taqdimotlar o'tkazish, shuningdek, mahalliylashtirish loyihibalarini moliyalashtirish instrumentlari, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish

va sertifikatlash bilan birga tadbirkorlik foaliyatini amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga yuridik, metodik va maslahat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha amaliy yordam berish ko'zda tutilgan.

Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi ertaga ham davom etadi. Tadbirda ishtirok etish uchun ishlab chiqarish korxonalarini, kichik va o'rta biznes vakillari hamda xususiy tadbirkorlar taklif qilinadi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)